Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · "Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnol... DOI: 10.5281/zenodo.24319051

materiallar to'plami

RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

Tursunov Farxod Baxodir o'g'li, Termiz davlat universiteti "Kompyuter va dasturiy injiniring kafedrasi o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimiz va dunyo miqyosida raqamli iqtisodiyotni rivojlanishi va bu yo'lda axborot texnologiyalarining o'rni va ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, axborot faoliyati, raqamli texnologiyalar, axborot – kommunikatsiya,

G'aniyeva Risola Rahmat qizi.
Termiz davlat universiteti. "Kompyuter tizimlari va ularning dasturiy ta'minoti" yo'nalishi 1 -bosqich magistranti. +99899 2401020. ganiyevarisola@gmail.com

Kirish. Axborot texnologiyalarining iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati haqida ko'plab fikr mulohazalar bildirilgan bo'lib ularning barchasi bugungi kun uchun o'zining aktualligini saqlab turibdi. Iqtisodiy jarayonlarni rivojlantirish uchun eng muhim omillardan biri bu avvalo iqtisodiyotni raqamlashtirishdir. Axborot texnologiyalarini rivojlantirish uchun mamlakatimiz tomonidan ham ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan ham ushbu sohaga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020 – yil 24 – yanvarda Oliy majlisga qilgan murojaatnomasida ham alohida to'xtalib quyidagi fikrlarni aytib o'tdilar: " Soha uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida xorijiy hamkorlarimiz bilan birgalikda "bir million dasturchi" loyihasini amalga oshirish boshlandi. Bu juda katta marra. Agar biz mana shu loyihani amalga oshirib, yoshlarga sharoitlarni yaratsak, albatta bu 3 – 4 yilda katta natija bo'ladi. Bu loyiha barcha soha uchun drayver bo'ladi. Bular barcha sohalarga kiradi. Bular jamiyatimizni, islohotlarimizni tezlashtirishga juda katta turtki beradi."[1]_degan gaplaridan so'ng ushbu soha yanda rivojlandi hamda yangi bosqichga chiqdi. Shu kabi yana bir nutqni eslashimiz mumkin. "Bugungi kunda soha mutaxassislariga sharoit yaratish, IT tadbirkorlikni, ayniqsa, AKT sohasida start-ap loyihalarni rivojlantirish bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Shu maqsadda Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki barpo etildi. Ayni paytda to'rt ming nafar mutaxassis faoliyat yuritayotgan 392 ta tashkilot ITparkning rezidentlari hisoblanadi" [2]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Iqtisodiyotda axborot texnologiyalarning qo'llanilishi va uning ahamiyati to'g'risida dunyo bo'yicha ham ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Iqtisodiy jarayonlarda uchun axborot texnologiyalarini qo'llash uchun avvalo axborotlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Axborot faoliyatining bugungi iqtisodiyot uchun qanday ahamiyatga ega degan savolga quyidagicha javob olishimiz mumkin:

Axborot faoliyati - milliy iqtisodiyot sohasi bo`lib, axborot mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqish va qayta ishlab iste'molchilarning bu boradagi talabini qondirish bilan shug`ullanayotgan tadbirkorlikning bir shaklidir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bozorining mamlakat milliy iqtisodiyotida nufuzli o`rinni egallab borayotganligini inobatgan olib, O`zbekiston Respublikasi birinchi

Published: 10.11.2023

Cite this article: Tursunov Farxod Baxodir o'g'li (2023). Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda axborot texnologiyalarining o'rni. Emro Science and Education, 1(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24319051

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

materiallar to‘plami

Prezidentining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to`g`risida»gifarmoni qabul qilingan edi. [3]

Iqtisodiy jarayonlarni axborot texnologiyalari yordamida rivojlantirishdagi yana bir muhim jarayonlardan biri bu raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishdir. “Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilanishini ko‘zda tutadigan “Raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasi”ni ishlab chiqishimiz kerak. Shu asosda “Raqamli O‘zbekiston-2030” dasturini hayotga tatbiq etishimiz zarur. Raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga o‘stirish, korrupsiyani keskin kamaytirish imkonini beradi.[4]

Raqamli iqtisodiyotda axborot texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati to‘g‘risida mashxur iqtisodchilardan biri M.Rouz shunday deydi: “Raqamli iqtisodiyotda axborotkommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash − ma’lumotlar aylanmasining axborot-kommunikatsion texnologiyalar hisobiga amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatning xalqaro tarmog‘i.” [5] yuqoridagi fikrga qo‘shimcha qilib shuni aytish kerakki, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi va ma’lumotlar oqimining oshishi iqtisodiy jarayonlarni tezlashishi va yanada barqarorlashishiga majbur qilmoqda.

R.V.Mesheryakov “raqamli iqtisodiyotda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari” atamasi bo‘yicha ikki xil: klassik va kengaytirilgan yondashuv borligini takidlaydi. Klassik yondashuvga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot va shu o‘rinda faqat elektron tovar va xizmatlar sohasini tavsiflaydi.[6] Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan biri bo‘lgan S.S.Gulyamov rahbarligidagi mualliflar guruhi raqamli iqtisodiyotda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llashning ahamiyati sifatida “jarayonlarni tahlil qilish natijalaridan foydalanish va katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash asosida turli xildagi ishlab chiqarishlar, texnologiyalar, asbob-uskunalar, tovarlar va xizmatlarni saqlash, sotish va etkazib berish samaradorligini jiddiy ravishda oshirishga imkon beradigan va raqamli ko‘rinishdagi ma’lumotlar asosiy ishlab chiqarish omili deb sanalgan xo‘jalik faoliyatidir” deb ta’riflash to‘g‘ri bo‘lishini ta’kidlashgan. [7]

Tadqiqot metodologiyasi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlanishi va bu jarayonda axborot texnologiyalarining o‘rni iqtisodiy statistik tahlil qilindi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi mamlakatimiz va jahon miqyosida o‘rganildi. Ma’lumotlar to‘plandi. To‘plangan ma’lumotlar kuzatish, iqtisodiy tahlil qilish, tizimli yondashuv hamda mantiqiy yondashuv kabi usullardan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Mamalakatimizda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishida asosiy omil bu axborot texnologiyalari ekan, shundan kelib chiqqan holda mamlakatimizda axborot texnologiyalarinig qanday rivojlanishi, bugungi kunda qanday ahamiyatga ega ekanligi, nafaqat yurtimizda miqyosida balki shu holat jahon bo‘yicha qanday holatda ekanligi ham ahamiyatga ega. Buni quyidagi jadvalda ham ko‘rish mumkin.

2016-2020-yillarda yalpi qo‘shilgan qiymatda “axborot-kommunikatsiya” sohasidagi xizmatlar hajmining o‘sish dinamikasi (trln.so‘m)[8]

materiallar to‘plami

Sohalar	2016-y	2017-y	2018–y	2019-y	2020y
YaIM	242,5	302,5	406,6	510,1	580,2
Sanoatning yalpi qo‘shilgan qiymati	220,1	267,7	361,1	464,9	535,8
“Axborot kommunikatsiya” sohalari	4,4	5,7	7,0	7,4	8,8

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi.

2016-2020-yillarda “axborot-kommunikatsiya” iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar hajmining o‘sish dinamikasi (trln.so‘m)[8]

Faoliyat turlari	2016-y	2017-y	2018–y	2019 -y	2020-y
Xizmatlar, jami	97,1	118,8	150,9	193,7	218,9
O‘sish sur’atlari (%)	114,7	110,7	108,9	113,2	102,3
“Axborotlashtirish va aloqa: sohasi	6.3	8,2	10,3	10,9	12,9
O‘sish sur’atlari (%)	114,6	121,3	115,9	108,3	115,3

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi.

So‘nggi kunlarda sun’iy intellektning rivojlanishi bu axboriy jarayonlar uchun o‘zining katta ta’sirini o‘tkazmoqda. Savdo sotiq jarayonlarida, ishlab chiqarishda, pul muomalasida robotlarning ishtirokining tobora ko‘payishi, inson omilining kamayishi qaysidir ma’noda ijobiy natijalarni bermoqda. Ammo boshqa tomonda salbiy holatlarga tayyor turish kerak degan fikrlar ham ilgari surilayotgani ham bor gap. Iqtisodiyotni robotlashtirishda ba’zi xavflarning vujudga kelishi mumkin. Jumladan, soha hodimlari o‘rinini robotlar egallashi orqali ishsizlik darajasini oshishi bashorat qilinmoqda. Undan tashqari avlodlar o‘rtasida tafovut kuzatiladi. Chunki yosh avlod vakillari axborot texnologiyalaridagi tezda ko‘nikib, moslashsa, yoshi katta avlod vakillari esa bunga moslashishi sekin kechadi. Ushbu tendensiya davomida bugungi kunda sekin asta ancha ommalishib ulgurgan virtual raqamli pul muomalasi ham yanada rivojlanadi. Bu go‘yo bizga engillik beradigandek ko‘rinsada lekin soha mutahassislari buni salbiy baholamoqda. Shu kabi o‘zgarishlar sababidan yaqin kelajakda bazi bir kasblarning yo‘qolishi va bazi yangi kasblarning paydo bo‘lishi kutilmoqda.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi fiklardan kelib chiqib shuni aytish kerakki, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, undan maqsadli, xavfiz va unumli foydalanish uchun avvalo axborot texnologiyalari va raqamli iqtisodiyot yo‘nalishlarida ma’lum savodxonlik, ko‘nikma va bilimlarga ega bo‘lish kerak. Ushbu jarayonni maktabgacha ta’lim, maktab ta’lim bosqichlaridan boshlash maqsadga muvofiq. Chunki bugungi globallashuv davrida har bir inson uchun biror axborot o‘sha inson uchun ijobiy yoki

salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun salbiy ma’lumot olinishidan oldin, o‘sha joynii kerakli va ijobiy axborot bilan to‘ldirgan ma’qul. Buni esa bolalik yoshidan boshlash ayni muddao.

Yana bir jihatni aytish kerak. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bilan bir qatorda raqobatbardosh iqtisodiyotni ham birgalikda rivojlantirish zarur. Shu yo‘nalishda muhim g‘oyalarni tarqatish, axborot bozori sifatida tavsiflangan ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy munosabatlarning rivojlanishi sohasida iste’molchilar, ishlab chiqaruvchilar vositachilar o‘rtasidagi savdosi axborot mahsulotlari bozorini shakllantiradi. Bu o‘z navbatida mamlakat iqtisodiyoti bilan bir qatorda axborot industriyasi, ishlab chiqarish va xizmatlar sohasini hamda milliy iqtisodiyotni axborot texnologiyasiga asoslanib, yangi bilim va ulkan innovatsiya asosida rivojlanishiga asos bo‘ladi.

Foydalalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi. Toshkent 2020 – yil 24 – yanvar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida” PQ-3832-sonli qarori, 2018-yil
3. DadabayevaR.A., ShoaxmedovaN.X., Ibragimova., L.T., NasridinovaSh.T., ErmatovSh.T.—Iqtisodiyotda axborot-kommunikatsiya texnologiyalar va tizimlar‖ fani bo`yicha o`quv-qo`llanma. –T.: IQTISODIYOT, 2019, -412b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-dekabrdagi 2019-yil uchun eng muhim ustivor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
5. https://www.taxcollege.uz/medias/article/other/288/1-mavzu-raqamli-iqtisodiyot.pdf
6. Gasanov T.A. va Gasanovlar G.A. Цивровое экономика в информационно-коммуникационном системе. – M., 2018 г. C. 25
7. Gulyamov S.S., Baltabayeva G.R. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. – T.: “Navro‘z” nashriyoti, 2019-yil. – 192 bet
8. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.
9. www.imv.uz